

## JADIDLAR HARAKATI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Abdullayev Ramazon**

*Email: ramazonabdullayev872@gmail.com*

+998888031118

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Norqulov O'lmasbek**

*Email:norqulovolmas559@gmail.com*

+998942951125

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Xo'shboqov Farrux**

*Email:farruxxushboqov46@gmail.com*

+998930019982

*Denov tadbirkorlik va va pedagogika instituti talabasi*

**Yo'ldoshev Sunnat**

*Email:yoldoshevsunnat806@gmail.com*

+998940763105

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini ma'rifatli qilish va jamiyatni yangilash va isloh qilishga qaratilgan jadidlar harakatining vujudga kelishi, taraqqiyoti, mintaqaviy-hududiy tarixi shakllari, jadidlarning asosiy g'oya va maqsadlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maorif, Mahmudxo'ja Behbudiy, Panislomizm (islomchilik), Panturkizm (turkchilik), "Tarbiyayi atvol" jamiyati, Gaspra shahri, Sulton Salim III, "Nizomi Jadid", A.N. Kuropatkin, "Ganch(Yosh Turklar)", Tarjimon gazetasi, Professor Begali Qosimov

O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelish shart-sharoitlari

Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, turkiston farzandlikarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi.

*Deydi: SH. MIRZIYOYEV*

O'zbekiston siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini yaratishda jadidchilik harakatini tadqiq qilish muhim ilmiy muammolardan biridir. Bu sohada oxirgi vaqtda anchagina ilmiy va ommabop risola va maqolalalar chop etildi. Ularda jadidchilikka

berilgan bir tomonlama, xaqiqatga zid baholarni noto'g'ri ekanligini isbotlovchi faktlar va izohlar berilgan. Xozir esa asosiy vazifa jadidchilik harakatining ilmiy jihatdan xolisona va halol tadqiq qilishdan iboratdir.

Maorif tizimini isloh qilish masalasi XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy fikrining diqqat markazidagi siyosiy masala bo'lib qoldi. Bu borada jadidchilik harakatining otasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy shunday degan:

“Biz dinimiz va mamlakatimizni ximoya qilishga qodir ishonarli va mustahkam vositaga ega bo'lmog'imiz shart. Bu vosita – Maorifdir “ deb yozgan edi - Mahmudxo'ja Behbudiy.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarning toptalishiga olib keldi.

Professor Begali Qosimov fikri bilan aytganda, Turkiston, Buxoro va Xorazm munavvarlarining yangilikka intilishi, Rossiyada, xususan Kavkaz, Volgabayida yashovchi turkiy xalqlar bilan yaqinlashishga, hamkorlikka intilish kuchaydi. Panislomizm(islomchilik) va panturkizm(turkchilik) kabi g'oyalar paydo bo'ldiki, Rossiya ichki ishlar vazirligi bunga jim qarab tura olmasdi. Jadidlarning maktablar ochib, gazetalar chiqarishi ham panislomizmga xizmat qilayapdi deb tushunildi va xokimiyat bu boradagi faoliyatlarga qarshilik ko'rsatishga xarakat qila boshladi. Jadidchilik umummilliy harakat sifatida: 1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi. 2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiysiyosiy maqsadlarga moslab chiqardi. 3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan “Turkiston muxtoriyati” bu yo'ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi. Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu — xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib, mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi deb hisoblashgan.

Ziyolilar xalq orasida ilg'or g'oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bilishdi. O'lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi. Yodda tuting! XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkistonda jadidchilik harakati vujudga keldi. 1909-yilda tashkil etilgan “ Tarbiyayi atvol” jamiyati faollari: Ahmadjon Abusaidov,

Usmonxoja Ahmadxo‘jayev, Hamidxoja Mehriy, Abduvohid Burxonov, Abdulqodir Muhitdinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa‘diy va boshqalar shirkatning rivoji yo‘lida katta hissa qo‘shganlar. Ushbu shirkatning vazifasi diplomatik immunitetni oshirish yuzasida Turkiyaning Istanbul shahriga talabalarni o‘qishga jo‘natish maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lib ushbu vazifalar bajarilib, o‘z natijasini ko‘rsata boshladi

Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy tarixiy shakllari:

- 1.) Qrim, Kavkaz, Volgabo‘yi-Bulg‘or va Janubiy O‘roldagi jadidchilikka ( Gasprali Ismoilbey, Jovid Husaynzoda, Muso Jorulloh Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddin rahnamolik qilishgan),
- 2.) Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand),
- 3.) Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent),
- 4.) A.Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abduvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro),
- 5.) Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda), (Farg‘ona vodiysi)
- 6.) Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi),
- 7.) Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari:

- 1.) “ Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish,
- 2.) “ Usuli qadim»ni isloh etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘lga olib chiqish” ,
- 3.) “ milliy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish” ,
- 4.) “ turkiy tillarga davlat tili maqomini berish,
- 5.) ” milliy pul birligi va milliy qo‘shin tuzish.

Bu g‘oya va maqsadlar 1917-1920 yillarda «Turkiston muxtoriyati», Buxoro va Xorazm xalq respublikalari davrida, qisqa muddatda va qisman bo‘lsa-da amalga oshirildi. Jadidchilik harakati vakillari o‘zlarining ma‘rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan demokratik g‘oyalarni: ilm o‘rganish, fan va texnika yutuqlaridan baxramand bo‘lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so‘z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat q‘urilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g‘oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san‘atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta‘siri ostida o‘z milliy qiyofasini yo‘qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma‘naviy-axlokiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy



o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustaxkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti

Jadidchilik (arabcha»jadid«-yangi)-yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomidir.

Toshkent Shahar Youdju texnika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Yaxiyoyeva Gulchexraning tayyorlagan maqolasida keltirilishicha "Jadid" atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo'ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko'rgan idora tizimini "Nizomi jadid" deb tushuntiradi. 1789 yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa "Fransiya nizomi jadidi" deyila boshlandi. Shu yillari "Nizomi jadid" tor ma'noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma'noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishni ko'zda tutar edi.

Demak, jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g'oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy –ma'rifiy, ijtimoiy- o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi "Ganch (yosh turk"lar) tashkilotlari tasirida "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" degan nomlarda faoliyat olib borishgan.

Yana bir muallif Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi 202-guruh talabasi Temirqulova Sarvinoz Ilhomovnaning maqolasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar - fidoiy kishilarning qattiq takib ostiga olinganligi va xatto ularning qatl etila boshlaganligi edi.

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida turkiy-musulmon o'lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy O'rol havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. U o'sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi-Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Turkistonlik ko'pchilik jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishida o'lkaga kirib kelgan chet el adabiyotlaridan tashqari, jadidlarning ilg'or mamlakatlarda bo'lib, ulardagi mavjud tuzum va tartiblar bilan tanishganliklari ham katta rol' o'ynaydi. M.Behbudiy, A.Fitrat, O. Mahmudov, I. Ibrat, M. So'fizoda, A. Ibodiy, H. H. Niyoziy va boshqa jadidlar Rossiyaning markaziy hududlari, Turkiya,

eron, Hindiston, Misr, Xitoy, Arabiston, Frantsiya, va Italiya kabi mamlakatlarda bo`ldilar.

U erlardagi kishilarning turmush-tarzi, mamlakatlarning taraqqiyotga erishuv darajasi va sabablarini o`rgandilar. Ularning barchalari taraqqiyotning negizi ilm va ma`rifatda ekanligini o`z sayohatlari natijalarida angladilar va buni omma orasida tashviq qilish uchun faoliyatga kirishdilar. O`lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog`ida, qashshoqlikda qoldirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan mustamlakachilik siyosati, mahalliy xalq ilg`or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi. Turkiston Rossiyaning bevosita mustamlakasi bo`lganligi bois, markaziy hududlardagi siyosiy o`zgarishlar bu erlarga ham sezilarli ta`sirini o`tkazar edi. Ilg`or ziyolilar Turkiston metropoliyaning xom-ashyo bazasiga aylanishi bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezdilar. Vatan taqdiri haqidagi bunday o`ylar oxir-oqibatda mustaqillik uchun kurashning o`ziga xos yo`llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya`ni kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo`lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo`lida bellashishning yagona yo`li, xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o`z o`rnida jadidchilik harakatining kelib chiqishiga sabab bo`ldi.

Rossiya musulmonlari orasida bu harakatni g`oyaviy rahnamosi bo`lib I. Gasprali(1851-1914) chiqdi. Jadidchilik dastlab haqli ravishda ma`rifatparvarlikdan boshlandi. Turkistonda Muftiy Mahmudho`ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o`g`li, Fayzulla Xo`jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo`jayev A. Zohiriy, O. Mahmudov, I. Ibrat, Hamza, Cho`lpon, A. Ibodiy va boshqalar bu harakatning boshida turdilar.

Rus amaldorlaridan biri, Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkin: «Biz erli xalqni taraqqiyotdan 50 yil orqada ushlab turdik», -deb xaqli ravishda tan olgan edi. Lekin bunday «ushlab turish»lar erksevar Turkistonliklarni ozodlik yo`lidagi harakatlarini yo`qqa chiqara olmas edi. Turkiston xalqlari hech qachon bosqinchilar qo`l ostida abadiy qolib ketgan emas. SHu bois rus mustamlakachiligiga qarshi kurash turli ko`rinishlarda bo`lsa-da, davom etdi. Bu kurash boshida millatning ilg`or fikrli ziyolilari turdilar. Dastlab maktab-maorif, yosh avlod ta`lim va tarbiyasini isloh etish g`oyasidan boshlangan bu harakat, keyinchalik o`z ichiga siyosiy muammolarni ham keng ko`lamini qamrab oldi.

Turkiston tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mintaq xalqlari hayotida hech qaysi harakat jadidchilik singari ulkan ta`sir kuchiga ega bo`lmaganiga guvoh bo`lamiz. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston mintaqasi, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy va ma`rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek G`aspirali (1851-1914) rahbarligida Qrim tatarlari o`rtasida vujudga kelgan.



Bu harakat namoyandalari ko`pincha o`zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O`sha davrning ilg`or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruratini tushunib etgan edilar.

Jadidchilik mohiyat e`tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat bo`lgan. Uning shakllanish, rivojlanish va mag`lubiyatga uchrash davrlari bo`lib, ularni shartli ravishda to`rtga bo`lish mumkin. Turkiston o`lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida bu davrlar: 1-davr (1895-1905); 2-davr (1906- 1916); 3-davr (1917-1920); 4-davrni (1921-1929) o`z ichiga oladi.

I.)1885-1895 yillar: G. Ismoilbeyning «Tarjmon» gazetasi ta`sirida Qo`qonda yangi-jadid usulidagi maktablar ochish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan. II.) Qrimdagi Gaspra shahridan G. Ismoilbeyning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895 yilda jadid maktablarini tashkil etish davri- Buxoroda Jo`raboy, Samarqandda A. SHakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, A. Avloniylar, Qo`qonda Hamza, Namanganda Is`hoqxon Ibrat, So`fizoda va boshqa siymolarimiz ochgan jadid maktablari o`z faoliyatlarini olib bordilar. III.) 1905-1914-yillar jadidchilikning maktab-maorifdan kengroq gazetachilik, ya`ni ro`znomalar va jaridalar chop etish, matbaa ishlarini yo`lga qo`yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat-maorifni milliyashtirish bosqichi. IV.) 1914-1917 yillar jadidchilikning o`ta ijtimoiy-siyosiy yo`nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy firqalarining tuzilishi va ularning uch xil turli talablar qo`yishi: 1) Rossiyadan to`la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tarkibida «milliy-hududiy muxtoriyat» tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tarkibida faqat ma`naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolatiga ega bo`lish. V.) 1917 yil oktyabri-1918 yil Qo`qonda» Turkiston muxtoriyati» ning tuzilishi va uning qonga botirilib, mahv etilishi davri. VI.) 1918-1924 yillar- sho`ro tizimi tarkibida, maorif-matbaa ishlarida «Chig`atoy gurungi»ni tuzish bilan ajralib turadi. VII.) Turkiston parchalanib (1924), jadidchilikning keyingi taraqqiyoti «milliy jumhuriyatlar» doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida «Chig`atoy gurungi» g`oyalarini zimdan amalga oshirishga, milliy-ozodlik harakatini jonlantirishga urindi. VIII.). 1931 yildan to 1937-38 yillar orqali 50-yillarning birinchi yarmigacha qatag`onga uchrash davri.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.) L.Mamasaidov\_jadidlar tarixi \_ majmua 2023
- 2.) Tarix\_ Sinaps\_https://tarix sinaps. Uz.www.sayti.
- 3.) Toshkent Shahar Youdju texnika instituti Boshlang`ich ta`lim yo`nalshi 3-bosqich talabasi Yaxiyoyeva Gulchexraning tayyorlagan maqolasidan.

- 4.) Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi 202-guruh talabasi Temirqulova Sarvinoz Ilhomovnaning maqolasidan.
- 5.) Jadidlar g'oyalari. Turkistonda jasdichilik harakatining vujudga kelishi va jadidlar harakatida milliy ziyolilarning o'rni.

